

Farg'ona Mintakaviy Yo'llarga Buyurtmachi Xizmati Davlat Unitar Korxonasi (keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan, amaldagi **Nizomiga** asosan faoliyat yurituvchi korxonada direktori **Sh.Po'latov** bir tarafdan va «**FARG'ONA PIRAMIDA FAYZLI MCHJ**» (keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladi) nomidan, amaldagi **Nizomiga** asosan faoliyat yurituvchi direktori **Y. Urmonov** ikkinchi tarafdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-son qaroriga asosan "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini taminlash bo'yicha qoshimcha chora-tadbirlar" 2022-yil "Tashabbusli byudjet" dasturi doirasida Farg'ona viloyatidagi ichki xo'jalik yo'llarini mahalliy byudjeti mablag'lari xisobidan joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha mazkur Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar: Lot№ 22110012185880

1. TARIFLAR

1.1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:

ijro xujjatlari – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar;

qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning xar bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilangan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash (ishlar bajarish va moliyalashtirish jadvallari).

2. ShARTNOMA MAVZUSI.

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-son qaroriga asosan "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini taminlash bo'yicha qoshimcha chora-tadbirlar" 2022-yil "Tashabbusli byudjet" dasturi doirasida Farg'ona viloyatidagi ichki xo'jalik yo'llarini mahalliy byudjeti mablag'lari xisobidan joriy ta'mirlash ishlari "Buyurtmachi" topshirigiga asosan **Farg'ona viloyati Uchkuprik tuman Katta Oasqari MFY si ichki yo'llarini joriy ta'mirlash** ishlarini loyixasmeta xujjatlarida ko'zda tutilgan xolda bajarish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" esa "Pudratchi"ga ishlarni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

3. ShARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

- 3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan umumiy ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda **1 164 500 000** (Bir milliard bir yuz oltmish turt million besh yuz ming) sumni tashkil etadi.

- 3.2. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi

- 3.3 Tegishli asoslar mavjud bo'lganda Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi

4. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» shartnomaning 2-bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomaga muvofik ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofik topshirish;

- zarur xollarda ayrim ish turlarining bajarilishida loyixasmeta xujjatlarida belgilangan mashina-mexanizmlar o'rniga, o'rindosh mashina-mexanizmdan foydalanilishi, belgilangan sifat laboratoriyasi xulosasi asosida amalga oshirilishi mumkin;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'lik xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi;

- shartnoma shartlariga asosan ob'ektning buyurtmachiga tasdiqlangan loyixaga muvofiq topshiradi;

- Pudratchi Buyurtmachi oldida yordamchi pudratchi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining oqibatlarini uchun javobgar bo'ladi.

4.2. "Pudratchi" mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun "Buyurtmachi" oldida tulik mulkiy javob beradi.

4.3. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu xaqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u xolda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z xisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

4.4. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda o'z xisobidan qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 3.3-bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan xollar bundan mustasno.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

5. BUYuRTMACHINING MAJBURIYATLARI.

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- "Pudratchi"ni o'z vaqtida loyixa-smeta xujjatlari bilan ta'minlaydi;

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab ishlarni bajarish uchun ob'ektni ishlar tugallaguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha "Pudratchi"ga beradi;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan "Pudratchi" tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, "Pudratchi"dan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlashni amalga oshiradi;

- ushbu shartnomadan azardatutilgan muddatdava miqdorda "Pudratchi"ga xaq to'laydi;

- "Pudratchi"ning barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqadi.

6. TO'LOV SHARTLARI VA XISOB-KITOBLAR.

6.1. "Buyurtmachi" ushbu shartnomaga asosan "Pudratchi"ning xisob raqamiga shartnomada ko'rsatilgan qiymatning 15%gacha miqdorida 2-ilovaga asosan avans mablag'ini o'tkazadi.

6.2. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilganidan keyin berilgan avansni xisobga olgan xolda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvalariga muvofik ob'ektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatining 85% miqdorida amalga oshiriladi. 5 foizlik ob'ekt kafolat muddati tugagandan so'ng moliyalashtiriladi.

6.3. "Pudratchi"ning boshqa xarajatlari loyixa-smeta xujjatlari ko'rsatilgan boshqaxarajatlar qiymatidan oshmagan xolda to'lovga qabul qilinadi.

6.4. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

7. ISHLARNI BAJARISH.

7.1. Pudratchi mazkur shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

7.2. "Buyurtmachi" qurilish maydonida o'z vakilini - texnik auditorini tayinlaydi. U "Buyurtmachi"ning nomidai bajarilayotgai ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi.

8. YENGI BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) XOLATLARI.

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar bunday majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

8.2. Pudratchining mazkur shartnomani bajarish uchun boshqa shartlashuvi sheriklari tomonidan majburiyatlarning buzilishi, majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozorda yo'qligi, Pudratchida zarur pul mablag'larining bo'lmaganligi fors-mafor xolatlariga kirmaydi.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.3. Agar yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muxokama qiladilar.

8.4. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

9. KAFOLATLAR.

9.1. "Pudratchi":

- barcha ishlarni to'liq xajmda sifatli va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini kafolatlaydi.

9.2. "Pudratchi";

- barcha ishlar to'liq xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

- loyixa xujjatlari xamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni sifatli bajarilishini ta'minlashi lozim;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlari ko'rsatilgan sertifikatlariga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchilik va nuksonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi, ob'ekt va unga kiradigan muxandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati

tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida bir yil etib belgilanadi.

9.3. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga kadar foydalanishni davom etgirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u xolda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar "Pudratchi" tomonidan uning o'z xisobidan bartaraf etiladi.

9.4. Agar "Pudratchi" bajarilgan ishlardagi nuqson va chala ishlarni dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda "Buyurtmachi" tomonidan 5%li kafolat summasini "Pudratchi" dan ushlab qolish xuquqiga ega.

9.5. "Pudratchi" nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l qurilish ishlari sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi» tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha iqtisodiy sudiga murojaat qilishdan istisno etmaydi.

10. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

10.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida, boshqa qonun xujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

10.2. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rstalgano'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, ob'ekt xisob raqamiga mablag'lar berilgandan so'ng o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun "Buyurtmachi" "Pudratchi"ga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50% oshmasligi lozim. Penya to'lanishi "Buyurtmachi"ni shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

10.3. "Pudratchi" ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5% miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50%dan oshmasligi lozim. Penya to'lash "Pudratchi"ni ishlarnibajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

10.4. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish xujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u xolda "Buyurtmachi" «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l qurilish ishlari sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi»ning xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun xaq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek "Pudratchi"dan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 100% gacha miqdorida jarima undirish xuquqiga ega.

11. NIZOLARNI XAL QILISH.

11.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar xal etolmasa ular konun xujjatlarida, belgilangan tartibda Iqtisodiy Sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

12. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

12.1. Buyurtmachi:

shartnoma kuchga kirgandan keyin kurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda; ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun ujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

12.2. Pudratchi:

ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

12.3. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish 15 kun muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

12.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

12.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

12.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

13. SHARTNOMAGA KO'SHIMCHA VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI.

13.1. Ushbu shartnomaga xar qanday kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, xar ikkala taraf imzolagan xollardagina xaqiqiy kuchga ega bo'ladi.

13.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish taraflarning kelishuvi bo'yicha yoxud O'zbekiston Respublikasining amaldagi Fukarolik kodeksi va konun xujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, yetkazilgan zararlarni koplash bilan amalga oshirilishi mumkin.

13.3. Shartnomani bekor qilishga qaror qilgan taraf boshqa tarafga yozma xabarnoma yuboradi.

14. MAJBURIYATLARNI AMALDA BO'LISH SHARTI VA MUDDATI.

14.1. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanganidan so'ng Viloyat G'aznachilik Boshqarmasi (bo'limi)da belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tganidan keyin qonuniy kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrigacha amal qiladi.

14.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 (Ikki) nusxada tuzildi.

14.3. Mazkur shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- 1-ilova - Bajarish jadvali.
- 2-ilova - Moliyalashtirish jadvali.

14. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA TO'LOV REKVIZITLARI.

"BUYURTMACHI"

Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati davlat unitar korxonasi

Manzil: Farg'ona sh. Aeroport ko'chasi 1-uy

Tel./faks: +99873-249-50-53

ShG'H: 401722860302217045204118004

INN:304 899 935

Farg'ona viloyati G'aznachilik boshqarmasi

YaG'H: 23 402 000 300 100 001010

Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar

Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi (HKKM)

MFO:00014 G'aznachilik bo'linmasining

STIR: 201 122919

"PUDRATCHI"

"FARG'ONA PIRAMIDA FAYZLI MCHJ"

Manzil: Manzil: Farg'ona vil. Marg'ilon sh. Gulzor kuchasi 27-uy

Tel./faks: +99893934814459

INN: 301708065

X/R: 20208000404870506001

Bank: Farg'ona shahar

MFO: 01131

STIR:

Buyurtmachi rahbari

Sh. Po'latov

Pudratchi direktori U.O'rmonov

XUQUQIY XULOSA

Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 12.09.2003-yildagi 395-sonli qarori va boshqa me'yoriy xujjatlarga asoslangan xolda to'g'ri tuzilgan. Shartnoma bo'yicha tomonlar o'rtasidagi majburiyatlarni bajarish muddati, predmeti, narxi va javobgarlik shartlari kelishib olingan. Shartnomani imzolash mumkin.

Buyurtmachi yuristi

R. Alimov

Moliyalashtirish Jadvali

Respublika byudjet mablag'larini xisobidan

Farg'ona viloyati Farg'ona viloyati Uchkuprik tuman Katta Qasgar MFY joriy ta'mirlash ob'ektining

Условия финансирования	2022												Jami 2022	2023 Yil	Jami ob'ekt bo'yicha	
	Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avqust	Sentyabr	Oktyabr	Novabr	Dekabr				
30% avans hatchomadagi umumiy ba- jarladigan ish xajmi qiymatidan											174,675			174,675		174,675
Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishga nisbatan proportional ravishda ajratilgan avansni ino-batga olgan holda											989,825			989,825		989,825
JAMI:											1164,500			1164,500		1164,500
<u>Qolgan 5% mablag' kafolat muddati tugagunga qadar</u>																
JAMI OVB'YEKT BO'YICHA											1164,500			1164,500		1164,500

mln. sum.



[Handwritten signature in blue ink]

"БУЮРТМАЧИ"

"ПУДРАТЧИ"